

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH - FAROVONLIK OMILIDIR

Jo‘rayeva Sarvinoz

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Inson resurslarini boshqarish yo‘nalishi
4-bosqich talabasi*

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jamiyatning yuksak ma’naviyatini shakllantirish kabi muhimdir. Aholining iqtisodiy bilimlar yuksakligi darajasi nafaqat o‘zining, balki mamlakatning ham farovonligiga ta’sir qiladi. Iqtisodiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish va ular uchun mustaqil ravishda javobgar bo‘lish qobiliyati aholini kelajakka, davlat uchun esa iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni idrok etadigan fuqarolarning ko‘payishiga olib keladi. “Moliyaviy savodxonlik – bu inson moliyaviy xulq-atvori va madaniyati sohasidagi uning farovonligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga olib keluvchi bilim, ko‘nikma va qadriyatlar majmuidir”.[1]

A.Sudakovaning ta’kidlashicha “Hozirgi vaqtida moliyaviy savodxonlik tushunchasi moliyaviy ma’lumot, kompetentlik va boshqa atamalar bilan uzviy bog‘liq. Moliyaviy savodxonlikning ko‘rsatib o‘tilgan tushunchalar bilan asosiy farqi unga tegishli bo‘lgan asosiy elementlarning tatbiq etilish kengligi va bayon etilishining chuqurligida namoyon bo‘ladi. Shaxsning moliyaviy savodxonligi tushunchasini o‘z farovonligini oshirish uchun moliyaviy jihatdan asoslangan to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi kompetensiylar yig‘indisi sifatida talqin etish mumkin.[2]

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish aholining moliyaviy farovonligini saqlash va yaxshilashga imkon beradi. Agar inflyatsiya yoki moliyaviy zarbalar natijasida jamg‘armalari qadrsizlansa yoki hatto butunlay yo‘qolsa, odamlarning uzoq muddatli jamg‘armalarini yoki fond bozoriga sarmoya kiritishini kutish mumkin emas. Bundan ko‘rinib turibdiki, moliyaviy savodxonlik munosabatlardan tashqari, moliya sohasidagi ma’lum darajadagi bilim va amaliy ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi[3].

Hozirgi kunda, moliyaviy savodxonlik darajasi yetarli darajada emas, bu muammo ayniqsa, ayollar, qariyalar va ta’lim darajasi past insonlar doirasida keskin tus olgan. Istalgan moliyaviy maqsadlarga erishish uchun aholining daromad topish, sarflash, tejash, qarz va investitsiyalar bo‘yicha savodxonlik darajasi yuqori bo‘lishi muhim hisoblanadi. Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo‘lishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, o‘z moliyaviy resurslarini to‘g‘ri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydalana olmasligi oqibatida esa kambag‘allik yoki o‘rta hol turmush darajasidan yuqori pog‘onalarga chiqishi murakkablashadi. Insonlarda moliyaviy savodxonlikning yuqori darajada bo‘lishi to‘g‘ri investitsiya qilishi, doimiy daromad manbaini shakllantirishda hamda keksalikda o‘zining moddiy ehtiyojlarini qoplashi uchun aql bilan ish tutishini ta’minlaydi. Moliyaviy savodxonlik quyidagi omillar orqali aholining turmush farovonligini o‘sishiga olib keladi:

- iqtisodiy islohotlarni me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashuvi;

- korrupsiyaga qarshi kurashni kuchayishi va jinoyatchilikni kamayishi;
- aholining moliya tizimiga bo‘lgan ishonchini va ijtimoiy faolligini oshishi.[3]

Insonlar ilmsizligi, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega emasligi, haq-huquqlarini yaxshi bilmasligi sababli ko‘p hollarda muammolarga duch kelishadi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, albatta, farovonlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi asosiy omildir. Buning sababi:

Moliyaviy xavfsizlik: Moliyaviy savodxonlik odamlarni pullarini samarali boshqarish vositalari bilan ta’minlaydi. Bunga budjet tuzish, favqulodda vaziyatlarda tejash, qarz va investitsiyalar bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish kiradi. Kuchli moliyaviy poydevor bilan odamlar kamroq stress va tashvishlarni boshdan kechiradilar, bu esa farovonlikka olib keladi.

Qarzning kamayishi va jamg‘armalarning ko‘payishi: Odamlar moliyaviy tushunchalarni tushunganda, ular keraksiz qarzlardan qochish va kelajakdagi ehtiyojlar uchun tejashni birinchi o‘ringa qo‘yish ehtimoli ko‘proq. Bu moliyaviy tanglikni kamaytiradi va odamlarga o‘z maqsadlariga ko‘proq ishonch bilan erishish, farovonlikni yaxshilash imkonini beradi.

Pensiya chiqishni rejalashtirish: Moliyaviy savodxonlik odamlarga xavfsiz pensiya rejalashtirish imkonini beradi. Ular pensiya rejalar, investitsiya imkoniyatlari va ijtimoiy sug‘urta imtiyozlarini tushunishlari bilan kelajak haqidagi tashvishlari kamayadi, albatta bu ham farovonlikning yuqori darajasiga hissa qo‘sadi. Moliyaviy savodxonlik odamlarga moliyaviy kelajagini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Quyidagi yo‘llar orqali aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish yanada samaraliroq bo‘ladi.

Maktablarda moliyaviy savodxonlikni integratsiyalash: Bu juda muhim. Moliyaviy savodxonlik tushunchalarini yoshligidanoq maktab o‘quv dasturiga kiritish orqali shaxslar butun hayoti davomida ongli moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun mustahkam poydevor yaratadilar.

Kattalar uchun ta’lim dasturlari: Kattalarning ko‘pchilik qismi moliyaviy savodxonlikka ega emaslar. Ular uchun seminar-treninglar, onlayn kurslar tashkil etish, moliyaviy ma’lumotlarni tushunarli, ixcham, hamma uchun ochiq qilish orqali bu bo‘shliqni bartaraf etish mumkin.

Demak, bundan shunday xulosa qilish mumkinki, moliyaviy savodxonlik va farovonlik o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqliklar mavjud. Moliyaviy savodxonligi yuqori bo‘lgan odamlar stress, tashvish va ruhiy tushkunlik darajasining past va hayotdan qoniqish darjasasi yuqoriligi bilan namoyon bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy savodxonlikni oshirish nafaqat pulni boshqarish, bu shaxslarning imkoniyatlarini kengaytirish, yanada barqaror jamiyatni mustahkamlash va aholining umumiy farovonligini oshirishga o‘z hissasi qo‘sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy, Paris, OECD, 2011.

Судакова А.Е. Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование // Финансы и кредит, 2017.

Asqarova M.I. Yoshlarning moliyaviy savodxonligi. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка.